



THE IMPORTANCE OF TEACHING HISTORY IN THE FORMATION OF THE NATIONAL IDEA IN STUDENTS

Farrukh Abdurakhmanov

Master's student

Andijan State University

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Student, national idea, history.

Received: 04.06.23

Accepted: 06.06.23

Published: 08.06.23

Abstract: The article analyzes and discusses the importance of teaching history in the formation of a national idea among students.

O'QUVCHILARDA MILLIY G'OYANI SHAKLLANTIRISHDA TARIX FANINI O'QITISHNING AXAMIYATI

Farrux Abduraxmonov

Magistratura talabasi

Andijon davlat universiteti

Andijon, O'zbekiston

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: O'quvchi, milliy g'oya, tarix.

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarda milliy g'oyani shakllantirishda tarix fanini o'qitishning axamiyati mavzusi tahlil va muhokama qilingan.

ЗНАЧЕНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ У ШКОЛЬНИКОВ

Фаррух Абдурахманов

студент магистратуры

Андижанский государственный университет

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национальная идея, история.

Студент,

Аннотация: В статье анализируется и обсуждается значение преподавания истории в формировании национальной идеи у школьников.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy ta’limni rivojlantirishda, tarix fanini o‘qitish shu orqali yoshlarda vatanga bo’lgan muhabbat va o‘z tarixidan iftihor hissini uyg‘otish xarqachongidan ko‘ra hayotiy zarurat sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Ushbu zarurat o‘z navbatida ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajiratib bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtaiy nazardan xozirgi kunda umumta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitishga katta e’tibor qaratilib, bu borada davlatimizda ko‘plab islohatlar amalga oshirilmoqda.

ASOSIY QISM

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va u uzluksiz tarzda ijtimoiy jamiyatda uzoq davr davomida shakllanib boruvchi jarayon. Bola tarbiyasiga uning kamolotga erishishida eng avvalo ota-onasi, maktab, mahalla, do‘satlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san’at, adabiyot, tabiiy sharoit, tashqi omillar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, tarix barcha jamiyat uchun, kelajak avlodning shakllanishi uchun, har kuni, har vaqt tarix zaruriy extiyoj hisoblanadi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning Oliy majlis deputatlariga qilgan murojatida xalqimiz hayotida bo‘layotgan tub burilishlar, 2020 yilni “Ilm-fan ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” yili deb belgilanishi, qilinadigan ishlarning asosiy mazmunini belgilaydi. Ayniqsa ilm-fan va ma’rifat hamda tarbiyaga bo‘lgan e’tibor, o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy tafakkurini tarbiyalash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi, hamda bu mavzu davlat miqiyosidagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib, jamiyat rivojida katta ahamiyatga ega.

Binobarin, o‘sib kelayotgan yosh avlodga, katta avlodning odobi va axloqi orqali, tarixni ma’naviy tafakkurni va yuksak ongni singdirar ekanmiz, komil insonda avvalo faqat yaxshi munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, ularda yaxshi muomala qilishni shakllantirish. Atrofdagilarning o‘zini qanday tutishligi bolaning tarbiyasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Jumladan, bugungi kunda o‘quvchi yoshlarda ma’naviy ahloqiy tarbiyaga ega bo‘lgan, komil inson fazilatlarini shakllantirib borish lozimdir. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev aytganlaridek, “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham g‘oyat muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan”.

Shu jihatdan o‘quvchilarda yuksak odob-ahloq qoidalarini shakllantirishda ma’naviy tafakkurga ega bo‘lgan iqtidorli bolalarni aniqlash, rivojlantirish va rag‘batlantirish shart-sharoitlarini yaratish zaruriyatini izohlaydi.

Umumta’lim maktablarida tarix fanini rivojlantirish, ta’lim-tarbtya tizimini yanada isloh etish borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish borasida 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi halq ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son farmonida umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga tarix fanini o‘qitib borishda axborot texnologiyalaridan foydalanib borishning samaraliy jixatlariga asosiy axamiyat farmonda qaratildi.

Binobarin, tarix fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy-tarixiy an’analari, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqqan holda o‘quvchilarga tarix fanini tushuntirishning samarali mexanizimini ishlab chiqib, uni amaliyotga joriy etishdir.

Tarix fanining asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun: – yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishiga ko‘maklashish, o‘z-o‘zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

– o‘quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarini shakllantirish, ularda malaka va ko‘nikma hosil qildirish, boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish singari munosabatlar o‘quvchilarga tarix fanini o‘qitishning asosiga aylandi.

Umumiyl o‘rtalim muassasalaridagi o‘quvchilarining yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari inobatga olinib, ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma’naviyatni yanada chuqur singdirish, ularda vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix fanining ahamiyati beqiyosdir.

O‘z navbatida, umumiyl o‘rtalim muassasalari o‘quvchilarini uchun «Tarix» fanini o‘qitishda avvalo o‘quvchilarni darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni yaratish bo‘yicha tuzuvchilar guruhini shakllantirish nazarda tutilgan.

Binobarin, yoshlarga ta’lim bilan bir qatorda tarbiyaviy ishlarni olib borishni nafaqat o‘qish jarayonida, balki sinfdan tashqari ishlar orqali ham singdirish mumkun. Bu borada quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

Birinchidan, yoshlarni erkin fikrlashga o‘rgatish, hayot mazmunini tushinib olishga ko‘maklashish, o‘z – o‘zini idora va nazorat qila olishini shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

Ikkinchidan, o‘quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarni shakllantirish, malaka hosil qildirish, o‘stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

Uchunchidan, har bir o‘quvchining axloqiy tarbiyaviy jixatlarini namoyon etishlarida, ularning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilish. O‘quvchi yoshlar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo‘llab-quvvatlash uchun shart-sharoit yaratish;

To‘rtinchidan, o‘quvchilarda insonparvarlik odob meyorlarini shakllantirish (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga qarshi kurasha olish), muomala odoi kabi tarbiya vositalarini keng qo‘llash;

Beshinchidan, o‘quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashga o‘rgatish. Ta’limdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarni qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo‘s sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi. Ushbu jarayonlarni tashkil etish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatları, tarbiyasi va tashabbuskorligini oshirishga imkon yaratadi.

Umuman olib qaraqanda, umumta’lim maktablarida “Tarix” fanini o‘qitishning maqsad vazifalari quyidagilardir:

- o‘quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash;
- hayotda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o‘rgatish;
- dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to‘g‘ri baho bera olish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ijtimoiy muammolarni hal etishda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish;
- loqaydlik, huquqbazarlik, “ommaviy madaniyat”ning turli ko‘rinishlaridan saqlash imkonini yaratish;
- hayotda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan aniq maqsadlarni shakllantirish;
- oila-jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish va hokazolar.

Mamlakatimizda ta’lim sohasiga doir davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoatchilik birlashmalari, davlat va xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi ta’minlanishi belgilangan.

Binobarin, «tarix» fanining o‘quv dasturi va darsliklarida vatanparvarlik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida urg‘u berilgan. Xususan, bunda milliy an’analar, ulug‘ allomalarning hayot yo’llari va asarlari, buyuk ajdodlarning faoliyatidan ibrat sifatida keng foydalanilgan. O‘z navbatida, ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni nafaqat g‘oyaviy, ma’fkuraviy jihatdan, balki ularda

vatanparvarlikni ham rivojlantirish darkor. Tarix fani o‘quvchilarga ularni har tamonlama barkamol va komil inson bo‘lib kamol topishlariga yordam beradi.

Umumta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga qaratilgan. Jumladan, umumta’lim maktablarining boshlang‘ich 5-sinifidan o‘qitilishi boshlangan tarix fani darsliklarda quyidagicha tariflanadi. 2020 yilda U. Jo‘rayev, Q. Usmonov, A. Nurqulov, G. Jo‘rayevalar mas’ul muharrirligida 5 – siniflar uchun yozilgan “Tatix” kitobi “TARIXDAN HIKOYALAR” deb nomlanib, 52 ta mavzudan iborat. Ushbu darslikning I-Bobi “Tarix fani nimani o‘rganadi?” deb nomlanib, mazkur bobda asosiy e’tibor tarixiy manbalar, kalendarlar tarixidan, tarixda yil hisobi, dunyo xaritasi tarixi kabi bolalar uchun yangilik bo’lgan tarix fani haqida ma’lumot beradi va fanni o’zlashtirishga oid bo’lgan boshlang‘ich tavsiyalar berilgan. Ushbu tavsiyalar o‘quvchilarga tushinarli hamda qiziqarli bo‘lishligi uchun, ko‘proq rasimlar animatsiyalar singari ko‘rgazmali dasturlardan iborat.

Umumta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilariga o‘qitilayotgan tarix fanida asosan vatanimiz va dunyo tarixi haqida hikoya qilib o‘quvchilarda uzoq o‘tmish va yaqin tarixi bilan tanishtirishga xizmat qiladi. 2017 yilda A.S. Sagdullayev, V.A. Kostetskiylarning mas’ul muharrirligida 6 – siniflar uchun yozilgan “Tarix” kitobi “Qadimgi dunyo” deb nomlanib, V-Bob 44 mavzudan iborat. Darslikning birinchi bobi “Eng qadimgi tuzum” deb nomlanib, mazkur bob beshta mavzuni o‘z ichiga oladi. Ushbu mavzularda ibtidoiy dunyo tarixi, eng qadimgi odamlar, vatanimiz va jahondagi qadimgi odamlar manzilgohlari haqidagi ma’lumotlardan iborat. Darslikning II-bobi “Qadimgi Sharq va O‘rta Osiyo” deb nomlanib, mazkur bob o‘n beshta mavzuni o‘z ichiga oladi. Ushbu bobda o‘quvchilarga Dunyoning eng qadimgi sivilizatsiya o‘choqlari jumladan: Nil vodiysi, Messopotamiya, Old Osiyo, Eron va yurtimizdagilik ilk vujudga kelgan shaharlar, davlatlarning tashkil topishi rivojlanish bosqichlari, zardushtiylik dinining vujudga kelishi va uni O‘rta Osiyo halqlari hayotida tutgan o‘rni haqida hikoya qiladi. III – IV boblar “Qadimgi Yunoniston”, “Miloddan avvalgi VI – milodiy III asrlarda O‘rta Osiyo” deb nomlanib, ushbu boblar jami o‘n oltita mavzudan iborat. Mazkur boblarda o‘quvchilarga Qadimgi yunon sivilizatsiyasi, yunon madaniyati, qadimgi yunonistonda ta’lim tizimi, davlat boshqaruvi, yunon-fors urushlari, O‘rta Osipyoda ahamoniylar hukmronligi, O‘rta Osiyo xalqlarining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi, Qadimgi Xorazm, Qang‘ va Davan davlati, Kushon davlati, Buyuk Ipak yo‘li va uning O‘rta Osiyo halqlari hayotida tutgan ahamiyati haqida ma’lumot beriladi. Tarix fanini o‘qitishda o‘quvchilarning yosh toyifasiga qarab mavzular tanlab olingan. Zero, inson ulg‘ayib borgani sari undagi biologik va ruxiy xolatlar ichki va tashqi tasirlar natijasida o‘zgarib boradi. Shuning uchun ham bugun o‘zining ijobjiy ta’siridan ko‘ra, salbiy ta’sirini ko‘proq namoyon etayotgan ommaviy madaniyatning

zararli ta'sirlaridan o'quvchi yoshlarni saqlashda muxum axamiyatga ega bo'lib borayotgan tarix fani darsliklari umumta'lim makteblarining yuqori siniflarida jamiyat va davlat manfaatlariga, shaxs kamoloti va farovonligiga mos tarzda yozilgan.

Jumladan, Muhammadjonov Abdulahad Rahimjonovich mas'ul muharirrigida 7 – siniflar uchun yozilgan “O'ZBEKISTON TARIXI” kitobi “IV asrdan XVI asrgacha” bo'lgan davrlarni va 42 ta mavzuni o'z ichiga oladi. Mazkur darslikning I-bobi “O'rta asrlarda yerga egalik qilish munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi” deb nomlanib ushbu bobda, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, lk o'rta asrlarda Xorazm, Xioniylar, Kidariylar davlatlari, Eftallar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, O'rta Osiyo xalqlari Turk xoqonligi davrida, mahalliy hokimliklarning tashkil topishi, VI–VII asrlarda madaniy hayot haqida o'quvchi yoshlar uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlar yozilgan. II-bobida esa “Arab xalifaligi davrida Movarounnahr” deb nomlanib, ushbu bobda Movarounnahrda Arab xalifaligining o'rnatilishi, Movarounnahrda Islom dinining yoyilishi, xalifalikka qarshi xalq noroziligi, Abbosiylar davrida Xuroson va Movarounnahr singari mavzularni o'z ichiga olgan. III-bobi “Movarounnahrda mustaqil davlatlarning tashkil topishi”, deb nomlangan bo'lsa, IV-bobi esa “Ajdodlarimizning ilmiy merosi abadiyatga daxldor ma'naviy xazina” deb nomlanadi. Darslikning V-bobi esa “Amir Temur va temuriylar davri tarixi” VI-bobi esa “XIV–XV asrlarda fan va madaniyatning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” deb nomlanib, ushbu boblarda asosiy e'tibor o'quvchilarni vatanimiz hududida tashkil topgan davlatlar ularning ijtimoiy-iqtisodiy xayoti, vatanimiz zaminida sodir bo'lgan siyosiy jarayonlar haqida yozilgan.

Binobarin, tarix fani darsliklarida qayd etilgan, mavzularda asosiy e'tibor o'quvchilarni ma'nан kamolotga erishishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda internet tarmoqlarining jadal suratlarda rivojlanib borishi, axborot komunikatsiya texnologiyalari hamda uyali aloqa vositalarining jadal suratlar bilan takomillashib, rivojlanib borishi o'quvchi yoshlarning ongu-shuriga o'zining ijobiy ta'siridan ko'ra salbiy ta'sirini ko'proq ko'rsatayotganligi ta'lim berish bilan bir qatorda tarbiyani ham olib borishlikni taqozo etmoqda.

Xozirgi kunda hayotiy zaruriyatga aylanib borayotgan tarix fanini xalq ta'limi tizimidagi 10 008 ta umumiyl o'rta ta'lim muassasasida 6 mln. 236 ming nafar o'quvchiga o'qitib borishlikni taqozo etmoqda. Zero, bugunning o'quvchi-yoshlarini har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib ulg'ayishlarini nazarda tutib, nafaqat o'quvchilarga ijtimoiy-siyosiy, g'oyavi-ma'naviy jixatdan tarix fanini o'rgatish, balki o'quvchilarning sog'lom fikrlaydigan, vatanparvar bo'lib yetishishlari uchun ham muxum axamiyatga ega. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus doirasida respublikadagi umumta'lim makteblarida tashkil etilgan tasviriy san'at, musiqa, sport, axborot texnologiyalari, qizlarga kasb o'rgatish yo'nalishidagi

to‘garaklari va kitobxonlik klublari tashkil etilib, ularga jami 3,9 mln nafar o‘quvchilar jalg’ etilgan.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga ta’lim bilan bir qatorda tarbiya berishlik, yoshlar kamolotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Tarix har qanday jamiyat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining Tarix fani bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat va jamiyat inqirozga mahkumdir. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish, to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yoshlar moddiy va ma’naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali ko‘rsatadigan tarix institutlar tizimiga ega bo‘lishi lozim.”

Bugungi kunda, mamlakatimizda axolining 50 foizidan ortig‘ini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlар tashkil etayotganligini inobatga oladigan bo‘lsak, ushbu yoshlarning davlat va jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Binobarin, yoshlarni har tamonlama yetuk va barkamol komil inson bo‘lib kamol topishligida avvalo tarix fani sohasidagi ta’lim va tarbiyaning o‘rni katta axamiyatga ega. Shunday ekan bugun yoshlar, ayniqsa o‘quvchilarning ta’lim va tarbiyasi, ularni insonparvar bo‘lib kamol topishligiga erishish davlat siyosatiga aylandi. Jumladan, 2022 yil 28 yanvar kuni O‘zbekiston Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida ham ta’lim-tarbiya masalasiga katta e’tibor qaratildi. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo‘nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan bo‘lib, 2022 yilda strategiyani amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarga 55 trln so‘m va 11,7 mlrd dollar ajratilishi ko‘zda tutilganligi bu boradagi ishlar ko‘laming nechog‘lik salmoqlik ekanidan dalolat beradi.

Taraqqiyot strategiyasining To‘rtinchchi yo‘nalishi: adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish deb nomlanib ushbu yo‘nalishda 33 ta maqsad belgilab olingan bo‘lib, ushbu maqsadning qarib 13 tasi aynan ta’lim tizimiga qaratilganligining o‘zi ham mamlakatimizda barkamol komil insonni tarbiyalashga nechog‘lik e’tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Jumladan ushbu maqsadlarda maktabgacha ta’limdan tortib, maktab ta’limi tizimida 2022–2026 yillarda ta’lim va tarbiya sifatini yanada oshirish borasida olib boriladigan ishlar maqsadi belgilab olingan. Binobarin, 41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘srimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratishga qaratilgan bo‘lsa,

42-maqсадда esa 2026 yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etishni nazarda tutadi. Maktabda ta’lim va tarbiyani rivojlantirishda, barkamol insoni voyaga yetkazishda, avvalo o‘qituvchilarining moddiy sharoitini yaxshilash darkor bo‘ladi. Taraqqiyot strategiyasining 43-maqsadi aynan malakali o‘qituvchilarining oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazishni ko‘zda tutadi. O‘z navbatida, o‘qituvchi-pedagoglarning oylik maoshlarini 1000 AQSh dollariga yetkazish ulardan barkamol komil insonni chiqarishni talab etadi. Bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish 44-maqsada o‘z aksini topgan. Jumladan, maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog- kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqishga aloxida ahamiyat qaratilgan. Bu borada esa pedagog-kadrlarning bilim saviyasini halqaro talablar darajasiga olib chiqishda xalq ta’limlari xodimlarini qayta taylorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirib borishni taqozo etadi. O‘z navbatida pedagog-kadrlarni qayta taylorlash institutlarini bosqichma-bosqich isloh qilish orqali kadrlar salohiyatini oshirib borishga erishish mumkun.

Pedagog kadrlarning malakasini oshirib borish bilan bir qatorda, o‘quvchilarining ham jismonan sog‘lom bo‘lishligi ham muxim axamiyatga ega. Jumladan, ekologik iqlim o‘zgarishlarining kuchayib borishi Orol bo‘yida yashovchi aholining sog‘lig‘iga salbiy tasirini ko‘rsatmoqda. Orol bo‘yi xududlarida ekologik muvozanatni saqlash bilan bir qatorda, mintaqada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bepul issiq ovqat bilan taminlash ham 45-maqsada Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan taminlashni nazarda tutilganligi, 2022-2026 yillarda maktab ta’limini yanada rivojlantirish asosiy e’tiborda ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda komil insonni voyaga yetkazishda tarix fani bilan bir qatorda tarbiya fani ham muxim axamiyatga ega bo‘lib, ta’limda tarbiyaning o‘rniga aloxida etiborni qaratish buguning asosi faoliyatiga aylanib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda tashqi ta’sirlarning yoshlar tarbiyasiga o‘zining ijobjiy tasiri bilan bir qatorda, sa’lbiy ta’sirining ortib borishiga olib kelmoqda. Ommaviy madaniyatning yoshlar tarbiyasiga ta’sirining sa’lbiy jihatlarini oldini olishda, yoshlarda o‘zaro mehr oqibat va odob ahloqni rivojlantirishda tarix fanining o‘rni beqiyos ahamiyatga ega. Shunday ekan, bugun umumta’lim maktablarda o‘quvchi yoshlarga tarix fanini o‘qitishni rivojlantirishda Sharq mutafakkirlarining tarix fani xaqidagi qarashlari va g‘oyalarini ilgari surish zaruratga aylanmoqda.

Binobarin, inson kamolotida tarix fanini o‘rta maktablarda o‘rgatishda Sharq uyg‘onish davri alomalari va olimlarining tarix haqidagi fikr va muloxazalaridan foydalanib o‘rgatib

borilsa, yoshlar ta’lim va tarbiyasiga ta’sir etayotgan ommaviy madaniyatning axloqsizliklarga yo‘g‘irilgan ta’siridan saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xozirgi kunda, dunyo hamjamiyatini o‘rgamchak to‘ridek o‘rab olgan, internet tarmog‘i va zamonaviy uyali aloqa tizimlari, axborot komunikatsiya tarmoqlari insonlarning ajralmas kundalik hayotiga aylanib qoldi. Uzoqni yaqin, xujjat ishlarini elektron tarzida tez va sifatli bajarilishiga katta yordam berayotgan internet tarmog‘i, o‘zining ijobiy jihatni bilan bir qatorda sa’lbiy jixatlarini ham namoyon etmoqda. Zero, bugun uyali aloqa tarmoqlari mamlakatimizda shu darajada rivojlandiki, ushbu zamonaviy aloqa vositalarining internet tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularish imkoniyatining mavjudligi o‘quvchilarining ta’lim va tarbiya olishlariga o‘zining ijobiy jixatidan ko‘ra sa’lbiy jihatlarini ko‘proq ko‘rsatmoqda. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga ta’lim berish jarayonida tarix fanini o‘qitishga alohida ahamiyat berish davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Ushbu talablardan kelib chiqan holda quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

-umumta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitishda, tarix so‘zining o‘ziga, uning mazmun-moxiyatiga tavsiya berib o‘tish;

-tarix fanini o‘qitish bugungi kunda hayotiy zaruriyatga aylanib borayotganligini ilmiy jihatdan tahlil etib berish;

Umumta’lim maktablari o‘quvchilariga tarix fanini o‘qitish orqali ularni Vatanga muxabbat, ajodollar ma’naviy merosiga xurmat, ekologik muammolarni oldini olish singari muxum strategik masalalar ilmiy ishda taxlil qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ёш авлод тарбияси — халқ фаровонлиги, баҳт-саодати кафолати// Adolat. 2020 № 18.
2. Юсуфалийев О.О. Ёшларни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялаш мезонлари// Academic Research in educatinol skiences. Scientific Journol Impakt Faktor (SJIE) 2021: 5,723. DOI:10,24411/ 2181-1385-2021-01132.
3. U. Jo‘rayev, Q. Usmonov, A. Nurqulov, G. Jo‘rayevalar mas’ul muharrirligida 5 – siniflar uchun yozilgan “TARIXDAN HIKOYALAR”. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. Toshkent: 2020
4. A.S. Sagdullayev, V.A. Kostetskiy // Qadimgi dunyo. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinif o‘quvchilari uchun darslik. – Toshkent: “Yangiyo‘l Poligraf Servis”, 2017.

5. R. Muhammadjonov // O'ZBEKISTON TARIXI. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinif o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati", 2017.
6. Maktablarda «Тарбия» фанини ўқитиш қандай ташкил этилган?// <https://xs.uz/uzkr/post/maktablarda-tarbiya-fanini-oqitish-qandaj-tashkil-tilgan-deputatlarning-savollariga-khalq-talimi-vaziri-zhavob-berdi>
7. Йўлдошев Қ. Тарбия. // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tarbiya-uz/>
8. Инсон қадри, ҳалоллик стандартлари, прагматик ташки сиёсат. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегиясининг 100 мақсади// https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/31/strategiya/?utm_source=push&utm_medium=chrome
9. Инсон қадри, ҳалоллик стандартлари, прагматик ташки сиёсат. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегиясининг 100 мақсади //https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/31/strategiya/?utm_source=push&utm_medium=chrome